

NEOLOGIZM VA ULARNING TARJIMASI

Ramazonov Shohruh Nusratillo o'g'li

TerDu Xorijiy filologiya fakulteti

Ingliz tili va Adabiyoti kafedra o'qtuvchisi

Mohijonova Navro'za Ahrorjon qizi

Termiz Davlat Universititi Xorijiy filologiya fakulteti

Tarjima nazariyasi va amaliyoti yo'nalishi 205-guruh talabasi

Annotation: *This article covers neologisms issues and parts in the translation process. In this article, we will consider the sections of neologisms and their forms based on the scientific works of several scientists. In this article, we will consider the categories and parts of neologisms.*

In this article, *we will also see neologisms found in scientific works and ancient works*

Key words: *neologism categories, neologisms in scientific works, word formation, neologisms in the Uzbek language, individual*

Аннотация: *В этой статье рассматриваются проблемы неологизмов и их части в процессе перевода. В этой статье мы рассмотрим разделы неологизмов и их формы на основе научных трудов ряда ученых. В этой статье мы рассмотрим категории и части неологизмов.*

В этой статье: *мы также увидим неологизмы, встречающиеся в научных трудах и старинных произведениях.*

Ключевые слова: *категории неологизмов, неологизмы в научных произведениях, словообразование, неологизмы в узбекском языке, отдельные*

Annotatsiya: *Ushbu maqola tarjima jaroyinida Neologizmlar muammolarni va qismlarni o'z ichiga oladi. Bu maqolada neologizmlar bo'limlarini va uning shakllarini bir qancha olimlarning ilmiy ishlariga tayangan holda ko'rib chiqamiz. Ushbu maqolada neologizmlarning kategoriyalarini va qismlarini ko'rib chiqamiz. Ushbu maqolada ilmiy asarlar va abadiiy asarlard uchraydigan neologizmlarni ham ko'rishimiz*

Kalit so'zlar: *neologism turkumlar, ilmiy asarlardagi neologizmlar, so'z yasash, o'zbek tilidagi neologizmlar, individual*

MUHOKAMA

Neologizmlar (yun. neos — yangi, logos — so'z) — jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo'lgan vaqtlardagina se-zilib turadi: vaqt o'tgach, ular "yangilik" xususiyatini yo'qotib, odatda, faol so'zlar qatoriga o'tadi. Masalan, o'zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, reyting, tender so'zlari hozirgi kunda umumiste'moldagi so'zlarga aylanmoq-da. Tildagi umumiy



Neologizmlar bilan bir qatorda individualuslubiy yoki okkazonal Neologizmlar ham mavjud. Bunday Neologizmlar mualliflar tomonidan ma'lum bir kontekstda uslubiy talab asosida yaratiladi.

Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash (nominativ) vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda, odatda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo'lish yo'llari xilma-xil bo'lib, ular tilning mavjud lug'aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so'z yasash yo'li, shuningdek, mavjud so'zning lug'aviy ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan va boshqa tildan so'z qabul qilish orqali hosil qilinadi.

Neologizmlar yangi atamalar yoki mavjud so'zlardan foydalanishning yangi usullari. Ular ilgari so'z bo'lmagan narsani nomlash yoki unga murojaat qilish uchun yaratilgan. Ushbu atamalar yaqinda paydo bo'lgan narsalarni, tushunchalarni yoki hodisalarni tasvirlash yoki yangi tendentsiyalarni yoki texnologiyalari.

Neologizm turlari:

Qisqartmalar orqali tuzilgan neologizmlar: Bular bir nechta so'zlarning birikmasidan hosil bo'lgan atamalar bo'lib, ularning bosh harflari yangi so'z hosil qilish uchun olinadi

Apokop tomonidan tuzilgan neologizmlar: Bular mavjud so'zdan bir yoki bir nechta bo'g'inlarni olib tashlash orqali hosil bo'lgan atamalar, "avto" (inglizcha "avtomobil" dan) yoki "tuit" ("tvit" dan) sifatida.

Neologizmlar (yun. neos — yangi, logos — so'z) — jamiyat taraqqiyoti, hayotning talab-ehtiyoji bilan paydo bo'lgan yangi narsa va tushunchalarni ifodalovchi so'zlar. Neologizmlarning yangiligi dastlab paydo bo'lgan vaqtlardagina sezilib turadi: vaqt o'tgach, ular "yangilik" xususiyatini yo'qotib, odatda, faol so'zlar qatoriga o'tadi. Masalan, o'zbek tili uchun bir qancha yil davomida yangi hisoblangan marketing, reyting, tender so'zlari hozirgi kunda umumiste'moldagi so'zlarga aylanmoqda. Tildagi umumiy Neologizmlar bilan bir qatorda individualuslubiy yoki okkazonal Neologizmlar ham mavjud. Bunday Neologizmlar mualliflar tomonidan ma'lum bir kontekstda uslubiy talab asosida yaratiladi.

Neologizmlar ilmiy asarlarda shu uslubga xos termin sifatida atash (nominativ) vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda, odatda, uslubiy vazifani bajaradi. Neologizmlarning paydo bo'lish yo'llari xilma-xil bo'lib, ular tilning mavjud lug'aviy tarkibi va grammatik qonun-qoidalari asosida yangi so'z yasash yo'li, shuningdek, mavjud so'zning lug'aviy ma'nolaridan birini yangi ma'noda qo'llash yo'li bilan va boshqa tildan so'z qabul qilish orqali hosil qilinadi.

So'z yasalishi — 1) muayyan tilda mavjud bo'lgan usullar, namuna va qoliplar asosida, ma'lum vositalar yordamida yangi so'z hosil qilish (so'z xrsil qilinishi). Masalan, affiks yordamida So'z yasalishi (so'zQla > so'zla, maza Q li > mazali), „qil“ yordamchi fe'li yordamida So'z yasalishi (tasdiq qilmoq, rohat qilmoq). Bu yerda „yasalish“so'zi „yasamoq“ fe'lining majhul nisbat shakli hisoblanadi va jarayonni ifodalaydi; birikmaning o'zi esa



lingvistik termin emas; 2) tilshunoslikning „Fonetika“, „Leksikologiya“ga o‘xshash alohida sohasini (bo‘limini) bildiradi. Masalan, o‘zbek tili morfologiyasi, o‘zbek tili sintaksisi, o‘zbek tili so‘z yasalishi. Bu o‘rinda „So‘z yasalishi“ birikmasi tilshunoslikka oid termin hisoblanadi. Tilshunoslikning bu bo‘limida yangi yasama suzlarning paydo bo‘lishi va buning shartsharoitlari, yasama so‘z tarkibiy kismlarining (So‘z yasalishi asosi va so‘z yasovchining) mohiyati, shuningdek, So‘z yasalishi bilan bog‘liq boshqa tushuncha va hodisalarning mohiyati o‘rganiladi. Masalan, So‘z yasalishi ma‘nosi, So‘z yasalishi tipi va qolipi, So‘z yasalishi me‘yori, So‘z yasalishi imkoniyati, So‘z yasalishi dagi mahsullilikmahsulsizlik hodisasi, So‘z yasalishi ning asosiy usullari, vositalari va boshqa Shu asosda tilning So‘z yasalishi tizimi tag‘lil etiladi.

Hozirgi o‘zbek tilida yasama so‘zlar, asosan, affikslar yordamida hosil qilinadi, ya‘ni morfemaning bir turi so‘z yasash uchun xizmat qiladi. Har qanday yasama so‘zning tarkibi So‘z yasalishi asosi va so‘z yasovchidan iborat bo‘ladi: huquqshunos (huquq — So‘z yasalishi asosi, shunos — so‘z yasovchi), tekislamoq (tekis — So‘z yasalishi asosi, la— so‘z yasovchi). So‘z yasalishi asosi yasama so‘z bo‘lishi ham mumkin: bilimli (bilim — So‘z yasalishi asosi, li — so‘z yasovchi). O‘zbek tilida faqat mustaqil so‘zlardan, ularning ham ot, sifat, fe‘l turkumiga oid so‘zlardan yangiyangi so‘zlar yasaladi. Demak, mustaqil suz turkumlaridan faqat ot, sifat va fe‘l turkumlarigina So‘z yasalishi tizimiga ega. O‘zbek tili lug‘at (leksik) tarkibining boyishi, rivojlanishida So‘z yasalishining muhim o‘rni bor. Azim Hojiyev.

Qozon tilshunoslik maktabining namoyandalaridan biri V.A.Bogoroditskiy o‘z tilini o‘rganishda boshqa tilning ta‘sirini hisobga olish zarurligi va uning ahamiyatini qayd qiladi.

Tillarning o‘zaro ta‘siri, bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklarning o‘zlashishi masalalari N.V.Yushmanov tadqiqotlarida ham e‘tiborli o‘rinda bo‘lgan. O‘zbek tilidagi o‘zlashma neologizmlarning tadqiqiga bag‘ishlangan an‘anaviy yo‘sindagi ishlar mavjud emas. Lekin o‘zbek tilidagi o‘zlashma neologizmlar sistem tadbirlar asosida o‘rganilmagan. Sababi shuki, lug‘aviy materialni sistem o‘rganish fonetika, morfologiya yoki sintaksis materiallarini sistem o‘rganishga qaraganda qiyinroq kechadi.

Maqola obyekt va manbalari. O‘zbek tili leksikasining o‘zlashma neologizmlari qatlami tadqiqotning asosiy obyekt sanaladi.

Kurs ishining asosiy maqsad va vazifalari. Mazkur maqolaning maqsadi hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi o‘zlashma neologizmlarni ayrim leksik-semantik xususiyatlarini tadqiq etishdir. Bunda quyidagi vazifalar hal etiladi:

o‘zlashma neologizmlarning semantik xususiyatlarini tadqiq etish;

o‘zlashma neologizmlarning leksik xususiyatlarini tavsif etish;

o‘zlashma neologizmlarning o‘zbek tili lug‘at tarkibiga o‘zlashish omillarini aniqlash.

Mavzuning o‘rganilish darajasi. Tilshunoslikda leksikologiya bo‘limi bo‘yicha dastlabki tadqiqotlar I.Rasulov, A.Shomahsudov, R.Qo‘nurovlar tomonidan olib borilgan bo‘lsa, keyinchalik M.Yo‘ldoshevning “Badiiy matnning lisoniy tahlili” va S.Karimovning



ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan. Ko‘rinadiki, leksikologiya sohasida talaygina ishlar amalga oshirilgan. Bu borada ishlarning bevosita davomi sifatida biz o‘z ishimizda o‘zlashma neologizmlarning leksik-semantik xususiyatlariga e‘tibor qaratdik.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish kerakki ushbu maqolada ko‘plab neologizm muommalarni kelib chiqishi oldini olish, va uni yanada takomillashtirishga doir bir qancha qator ishlar olib borilmoqda.

Quyida keltirilgan olimlarning asarlari bilan ham tanishib chiqishimiz mumkin.

Bundan tashqari bu maqolada neologizm turlari va so‘z yasalişini ko‘rib chiqishimiz mumkin.

Neologizmlarni ilmiy asarlarda va badiiy asarlarda tarjima qilish jarayonida ko‘plab yechimlarni ko‘rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbek milliy ensiklopediyasi 2000-2005
2. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/So%CA%BBz_yasalishi
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Neologizmlar>
5. Azim Hojjiyevning kitoblari
6. <https://fayllar.org/mavzu-ozbek-tilida-neologizmlar.html>

